

TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOIY-IQTISODIY QARAMLIKKA QARSHI VA MEHNAT MOTIVATSIYASINI OSHIRISHGA QARATILGAN O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI

*Sharapova Dildora Baxtiyarovna
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqola ta'lif jarayonida o'quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik masalasi, ya'ni boqimandalik hulq-atvorini bartaraf etish hamda o'quvchilarda mehnat motivatsiyasini oshirishning ahamiyatli jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ta'lif jarayoniga tadbiq etish zarur bo'lgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Tayanch atamalar: ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik, mehnat motivatsiyasi, kam daromad lekin stabil hayot tanlovidagi fikrlash, o'zgarishlardan qo'rqish, o'ziga past baho berish.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧАЮЩЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ ПРОТИВ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗАВИСИМОСТИ И ПОВЫШЕНИЯ ТРУДОВОЙ МОТИВАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Шарапова Дилдора Бахтияровна.
Докторант НИИ «Семья и женщина»*

Аннотация: Данная статья направлена на изучение вопроса социально-экономической зависимости школьников в образовательном процессе, т.е. устранения детского поведения и важных аспектов повышения трудовой мотивации у обучающихся, и ее применение к образовательному процессу содержит необходимые рекомендации.

Ключевые слова: социально-экономическая зависимость, трудовая мотивация, низкий доход, стабильное мышление жизненного выбора, страх перемен, низкая самооценка.

IMPORTANT ASPECTS OF ORGANIZING LEARNING ACTIVITIES FOR AGAINST SOCIO-ECONOMIC DEPENDENCE AND INCREASING LABOR MOTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*Sharapova Dildora Bakhtiyorovna
Doctoral student of the Research Institute «Family and Woman»*

Annotation: This article is aimed at studying the issue of socio-economic dependence of younger students in the educational process, i.e. elimination of child behavior and important aspects of increasing work motivation among students, and its application to the educational process contains the necessary recommendations.

Key terms: socio-economic dependency, work motivation, low income but stable life choice mindset, fear of change, low self-esteem.

So'nggi yillarda Respublikamizda inson manfaatlari yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar inson qadr-qimmati hamma narsadan ustun ekanligini isbotlamoqda. Mamlakatimizda ilk bor kambag'allik qatlami tan olindi va bu holatni bartaraf etish yuzasidan amaliy ishlarga kirishildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan «Temir daftari», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» joriy etildi. Ularning tarkibiga ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan hamyurtlarimiz kiritilib, moddiy sharoitini yaxshilash, doimiy daromad manbaiga ega qilish choralar ko'rila boshlandi. Maqsad esa yagona – har bir oila moddiy jihatdan qiynalmasin. Bizning libosimiz oriyat, amalimiz vijdon, e'tiqodimiz iyomon butligidir! Biroq bu sa'y-harakatlar ba'zi insonlarning boqimandalik hulq-atvorini namoyon etishiga, shuningdek, farzandini ham ana shu ruhda tarbiyalashisa sabab bo'lib qolmoqda.

Aholi manfaatiga yo'naltirilgan har qanday amallar davlatimiz rahbari va hukumatimizning uzoqni ko'zlab tuzgan rejasi bilan bog'liq. Bugungi e'tibor ertaga meva berishi uchun undan unumli foydalanishga burchlimiz. Birni ikki qiladigan, ikkini elga tatitudigan ham o'zimiz. Shunday ekan, ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni suiiste'mol qilishga haqqimiz yo'q. Aks holda teshik tog'oraga kunimiz qolishi hech gapmas...[4]

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil, boqimanda shaxs muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilib, muammoning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik hususiyatlari tahlil qilinmoqda. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxsning psixologik hususiyatlarini to'liq ochib berishga qaratilgan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar yetarli emas, shuningdek, boqimanda insonlar bilan olib borilishi lozim bo'lgan mehnat motivatsiyasini oshirishga, boqimandalik tabiatini bartaraf etishga qaratilgan psixologik mashg'ulotlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarurati ham bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Kambag'allik psixologiyasi negizida ko'pincha ishyoqmaslik, dangasalik, boqimandalik, mehnat qilishga ishtiyoqning, motivatsiyaning yo'qligi yotadi. Mazkur holatda ruhiyat o'ziga ba'zi cheklavlarni va pragmamalarni joylshtiradi, ya'ni, nafaqat hayot kambag'alligi, balki fikr kambag'alligi ham vujudga kelib, bu inson xatto-ki, lotoreyadan katta pul yutib olsa-da, bu pullarni faqat ehtiyoji uchun sarflab, yana o'sha eski holatiga qaytadi. Buning eng asosiy sabablari uning fikrlash tizimidadir. Shu sababdan shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitimizning bugungi kun ta'lif tizimiga o'quvchilarni har qanday sharoitga moslashuvchan, mehnat motivatsiyasi yuqori, boqimandalikdan or qiluvchi, o'z mehnati bilan muvofaqqiyatga erishuvchi qilib tarbiyalash dolzarb vazifaga aylandi. Avvallo o'quvchilarning fikrlash tizimidagi quyidagi jabhalarga e'tibor qaratish lozim:

Kam daromad lekin stabil hayot tanlovidagi fikrlash – bunda inson kam to'lanadigan, lekin stabil daromadni tanlaydi. Bunday inson o'z kuchiga ishonmaydi, tajriba va bilimiga talab bo'lishiga ko'zi yetmaydi.

O'zgarishlardan qo'rqish – bunda inson birovlargacha kerak bo'lmay qolish sababli o'zgarishlardan qo'rqadi. Ularning shiori – tavakkal qilib barchasini yo'qotgandan ko'ra ozginaga ega bo'lgan yaxshi streiotipidir.

O'ziga past baho berish – albatta qaerdan ham o'ziga yuqori baho bo'lishi mumkin, agar inson o'zi hohlaganday hayot kechirmasa zerikarli ishga borib kelsa, hayotida yorqin hodisalar yuz bermasa. Aynan shu omillar inson o'zini hurmat qilishiga, o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga olib keladi.

Psixologik adabiyotlarda “kambag'allik-boylik” dixotomiyasining qiyosiy tahlili [2] quyidagicha:

	Kambag‘allar			Boylar		
	Kategoriyalar	Oqibatlari	Sabablari	Kategoriyalar	Oqibatlari	Sabablari
	Kognitiv aspektlar					
1	Ustanovka, cheklov va resurslarni yetishmasligi	Xasad, ochko‘zlik, g‘azab	O‘ziga achinish, hayotidan doi-miy shikoyat qilish, ahami-yatsiz narsa-larga e‘tibor qaratish, bosh-qalarning muvofaqqa-ti bilan o‘z hayotini so-lishtirish, pulni o‘ta tejash	Mo‘l-ko‘llikka munosabat	Mavjud narsalar uchun minnatdorlik va shukuronaliq hissi	Boshqalarning hayotini yengillashtirish istagi (boshqalar-ga yordam berish)
	Barchasiga birdan ega bo‘lish yoki barchasidan birdan ayrilish istagi	Harakatlar-ni rad etish va rejalashtirish bosqichi	O‘zgarishlar-dan qo‘rqish va xavf, ko‘p tizimli ravishda ishlashni istamaslik	Rivojlanish uchun vaqt zarurlini anglash	Malaka oshirish, Bilim, miqdoriy natija yuqori sifatga o‘tadi	Faol pozitsiya [1, 396]
	Muvofaqiyat naqd pul miqdorida o‘ylaniladi	Naqd pul yetishmas-ligi sababli harakat-larning cheklanishi	Yo‘qotishdan qo‘rqish	Muvaffaqiyat orzu va g‘oyalarni amalga oshirish, yangi biznesni boshlash kabi tasavvur qilinadi	Yangi tanishlar, qiziqarli tadbirlar, yangi narsalar-ni bilish	O‘z-o‘zini humrat qilish, atrofdagi-larni qo‘llab-quvvatlash
	Vaqt ne‘matini qadrlamaydi	Kam foyda olish uchun ko‘p kuch, vaqt va mablag‘ sarflaydi	“Surunkali ochko‘zlik”	O‘z vaqtining qadrini biladi	Yaqinlari bilan hissiy aloqani qadrhaydi	Narx-sifat o‘lchovi va kirim-chiqim hisobini oladi
	“Hamma men uchun majbur” ustanovkasi bilan ish yuritish	Atrofdagi-lar bilan ziddiyatli munosabat	O‘ziga achinish, hayotidan doimiy nolish	O‘zi va farovonligi uchun javobgar-likni o‘z zimmasiga olish	Ular asossiz foyda izlamasdan, kerak bo‘lganda to‘lashga harakat qilishadi	Ularning odatlari ularning moliyaviy ahvoliga ta’sir qiladi deb ishonadi
Hissiy aspektlar						
	Shoshqaloqlik va salbiy motivatsiya	G‘azab, xasad, ayblovlar	Bor narsani yo‘qotish-dan qo‘rqish	Ishidan qonqish hissi	Dunyoning adolatini anglash	Farovon va mo‘l-ko‘l fikrash
Hulq-atvor aspektlari						
	O‘z sevmaydigan biznes bilan shug‘ullanadi, o‘ziga yoqmaydigan joyda ishlaydi	Hamkasblar-idan, boshliqlar-dan doim g‘azablanadi	Barqaror daromadni yo‘qotishdan qo‘rqish, tavakkal va xavfdan qo‘rqish	Sevimli ish bilan shug‘ullanadi	Rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish	Dunyoning xavfsizligi va mo‘lligi
	Mayda narsalar uchungina jamg‘arma to‘plash	“Boylarni soxta yetarligi”dagi turg‘un hissiy holat	Mablag‘larni kerakli vaqtarda yo‘qotishdan qo‘rquv	Resurslardan faqat kerakli vaqtardagina foydalanadi	Sotib olish, sotish, bepul hizmat, rad etishda mustaqillik	Sarflash va orttirishda kerakli vaqtini tanlay bilish
	Chegaralangan darajadagi daromad	Sotib olishda o‘zini cheklash, arzon va sifatsiz mahsulotlar xarid qilish	Barqaror ishni yo‘qotishdan qo‘rqish va qo‘shimcha ish qilmastik	“Taklif chegaralari”ni kengaytirish	Talabga ko‘ra taklif qilish va yuqori narx	O‘z xoxishi bilan pul ishlab topish
0	Doimiy yordam so‘rash va kutish	O‘z xoqlaganini qilish, boshqalar fikrini tinglamaslik	“Hamma men uchun majbur” ustanovkasi	Hamkorlik sifatida yordam so‘rash	O‘zaro hamkorlik, yordam, o‘zaro boyitish imkoniyat-lari	O‘z-o‘zini qadrlash va aktiv pozitsiya
Ijtimoiy-ma’muriy aspektlar						
1	Pul sarflashi qiyin (xasislik)	Hamma narsani imkon qadar arzon sotib olish	Maqsadi faqat tejash	Hayriya va homiylik bilan shug‘ullanadi-lar	Odatlar moliyaviy imkoniyat-larga ta’sir ko‘rsatishi-ni tan olish	Tuganmas imkoniyatlarga ishoshish
2	Aloqalarning cheklanganligi	Qiyin vaqtarda yolg‘iz qolish	“Hamma majbur” ustanovkasining ustunligi	Yangi tanishlar orttirish va zavq bilan muloqot qilish	“Jangda yolg‘iz emasman” ustanovkasining ustunligi	Yangilikka intilish xoxishi
3	Mehnat – zo‘riqish, xordiq – mukofot	Mehnat qilish odatiy va majburiy	Dam olish istagi “Boylar ishlamataydi” ustanovkasi	Mehnat uzlusiz jarayon	Mehnat – bu ijod	O‘zini rivojlantirish istagi

Bugungi globallashuv sharoitida shaxs ruhiy holati va jimoniy kamolotidagi muvozamat uning ichki zaxira

kuchlarini anglamaganligi, ishlata olmasligi natijasida ham ijtimoiy muhitdagi moslashuv hamda o‘z o‘rmini egallay olish ko‘nikmasiga jiddiy ziyon yetkazayotganini kuzatish mumkin. Insonlar har tomonlama natijaga erishishida avvallo o‘zining ichki zahira kuchini anglashi va mana shu kuchni ishlata bilishi lozim. Barcha muvofaqiyatga erishishni istaydi, biroq aynan shu yo‘lda harakat qilishni bilmaydi. Yoki harakat ham qilishi mumkin, lekin u o‘zining maqsadi sari harakat yo‘nalishini bilmaydi, ya’ni, huddi uzoq va bilmaydigan yo‘lga haritasiz chiqqan kishiga o‘xshaydi.

Shaxsning rivojlanishi va uning hayotida muvofaqiyatga erishishi uchun o‘zidagi ichki to‘siqlarni yengib o‘tish, o‘zining ichki kuchlarini anglash va rivojlanishi uchun bollik davridanoq mehnat motivatsiyasin oshirishga qaratilgan kompleks choralarmi qo‘llash, tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisobladik [5].

Bunda esa quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

Shaxsning bilish jarayonidagi sferalar (diqqat, xotira, tafakkur, idrok) va ijtimoiy muhitga munosabat (iroda va emotisilar)ni to‘g‘ri shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar uyg‘unligi;

Kamolotga yetishishda to‘siq bo‘luvchi ichki omillarni anglash va uni bartaraf etish;

O‘zining hayotiy pozitsiyasi va missiyasini anglashga erishish;

Atrofidagilarning fikrlarini o‘zining dunyoqarashi bilan solishitirish imkoniyati;

O‘z ustida ishslashda e‘tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar, kitob mutolaasi, shaxsiy rivojlanish kabilar;

Bolalar bilan bu jarayonda turli treninglar tashkil etish lozim bo‘lib, bunda mashg‘ulotlarni olib boruvchi trenerdan quyidagi sifatlar talab etiladi:

Jamoa bilan ishslash va guruhni jipslashtira olish ko‘nikmasi;

Psixologik va pedagogik ma‘lumotga ega ekanligi;

O‘z ustida tinmay izlanishi va klub a‘zolarini ham izlanishga unday olishi zarur;

Hayotiy tajriba va ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi;

O‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘li murakkab va mashaqqatli. Ba’zida nafaqat tashqi omillar insonning yaxshilanishiga, balki uning ichki «men»iga ham to‘sqinlik qiladi. Muammoni bilish uning muvaffaqiyatli hal yetilishini kafolatlamaydi: o‘z-o‘zini rivojlantirish, xuddi jumboq kabi, ko‘plab turli xil va bir xil darajada muhim qismlardan iborat. Muvaffaqiyatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

to‘g‘ri yo‘nalish;

istalgan natijaga qat’iy ishonch;

shaxsiy o‘sish uchun motivatsiya;

iroda kuchi;

yangi, sog‘lom turmush tarzi foydasiga o‘rnatilgan odatlarni qurban qilishga tayyorlik;

progressiv, ammo maqsadlar sari uzlusiz harakat.

Maqsadni amalga oshirishda olib boriladigan mashg‘ulotlar asosiy yordamchi bo‘ladi. Bu shaxsning kerakli natijalarni aniq belgilashga, mashaqqatli maqsad sari qiyin yo‘lni individual yutuqlar bilan qisqa muddatli bosqichlarga ajratishga, yo‘lning har bir bosqichida ruxsat etilgan chegaralarni belgilashga va muvofaqiyatli usullar haqida o‘ylashga yordam beradi, orzularga yaqinlashtiradi. O‘z-o‘zini takomillashtirishning asosiy nuqtasi to‘g‘ri tuzilgan maqsadlardir. Ular haqiqiy emas yoki osmon baland ko‘rinmasligi kerak. Har bir inson yaxshi natija uchun bu yo‘lga qadam qo‘yadi:

o‘zining «men»i bilan uyg‘unlikka erishish;

salomatlikni saqlash va mustahkamlash - yagona qimmatli, ammo, afsuski, tugamaydigan manba;

o‘z qo‘rquvlaringiz, komplekslaringiz, zaif tomonlaringiz ustidan g‘alaba qozonish.

Inson his-tuyg‘ularini nazorat qilmasdan, fikr va his-tuyg‘ularni tartibga solmasdan, ma‘naviyatning materialdan ustunligisiz shaxsning uyg‘un rivojlanishi mumkin emas. Salomatlikni saqlash yomon odatlardan voz kechish, oqilonqa muvozanatli ovqatlanish, faol hayot tarzi va o‘ylangan kun tartibini anglatadi. O‘zining zaif tomonlari ustidan g‘alaba qozonish yuzlab ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin: kimdir uchun bu shunchaki dangasalik va passiv hayotiy pozitsiyaga qarshi kurash, boshqalari g‘iybat va behuda gaplarni yo‘q qilishlari kerak, boshqalari esa tijoratchilikdan xalos bo‘lishni xohlamaydilar ... Siz nuanslarni cheksiz sanab o‘tishingiz mumkin, chunki har bir insonning o‘ziga xos ichki dunyosi va fazilatlari bor. Biroq, o‘z-o‘zini rivojlantirishning ushbu yo‘nalishida rejalashtirish ancha sodda va qulayroq ko‘rinishiga rozi bo‘ladi. Ushbu buzilish yakuniy yemas, chunki yangi darajaga o‘tish uchun bir oydan ko‘proq vaqt ketishi mumkin. Bir kun yoki hatto bir hafta ichida tanani to‘liq tiklash, zararli ovqatlardan voz kechish va faol sport o‘ynashni boshlash qiyin va ba’zan xavfli. Har qanday jarayonda, shu jumladan o‘z-o‘zini rivojlantirishda, oqilonalik va izchillik kerak, shuning uchun yakuniy maqsadning har bir tarkibiy qismini mikrokomponentlarga bo‘lish va ularga asoslanib, bir oy yoki bir hafta davomida o‘zini o‘zi rivojlantirish rejasini tuzish yaxshiroqdir. Bu taraqqiyotni kuzatish, dasturning rivojlanishi davomida uni sozlash va ba’zi jihatlar nima uchun haqiqatga aylantirilmasligini tahlil qilishga yordam beradi [3].

Yangi bilimlarni rivojlantirib, olganingizda, tanlangan yo‘nalishda muvaffaqiyatga qanday tezda erishish mumkinligini tushunasiz. Farqni his qilyapsizmi? Haddan tashqari iste’mol degradatsiyaga va turg‘unlikka olib keladi. Ta’limingizga sarmoya kiritish esa o‘sish va muvaffaqiyatga olib keladi.

Mazkur mashg'ulotlarning asosiy va muhim vazifasi o'quvchilarda davr talabiga mos bo'lgan SOFT SKILLS ko'nikmalarini shakllantirish:

Muammoni tizimli hal qilish

Tanqidiy tahlil

Kreativlik

Liderlik

Harakatlarni muvofiqlashtirish

Hissiy aql

O'z fikrlarini shakllantirib, ularga asoslangan qarorlarni qabul qilish

Natijaga yo'naltirilganlik

Muzokaralar asosida o'zaro aloqalar

Kognitiv moslashuvchanlik

Xulosa o'rnida Forbes jurnali kelajakda zarur bo'gan SOFT SKILLSlar boshqaruvni hal qilishi haqida yozdi, unga: muammoni boshqarish, taym-menejment, stressni boshqarish, muloqot qobiliyati, kompaniya madaniyati, iste'molchiga yo'nalghanlik, hissiyotni jilovlash, shaxsiy natijadorlik, fikrni yetkaza bilish, forsayt va o'zgarishlarni boshqarish kabilar kiritilgan. Zamonaviy ta'lim nafaqat bilim berishi balki zamonga mos kadrlarni ham tayyorlashi lozim. Mazkur vazifani amalga oshirishda yuqoridagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Foydalaniman adabiyotlar.

Кови С.Р. Семь навыков высокоэффективных людей: Мощные инструменты развития личности /Стивен Р. Кови ; Пер с англ. – 12 изд., доп. – М. : Альпина Паблишер. 2017.- 396 с

Б.Сагитова. “БЕДНОСТЬ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ” Журнал “Вести научных достижений” (Проблемы педагогики и психологии) N 1. Май 2018 г

X.Abdusamatov, D.Sharapova. “Halovatli honodon sohibalari uchun”, Mahalla va oila, Toshkent-2022y.

X.Saminjon Husanov. “Xalq so‘zi”, 22 Avgust 2021

P.Ergashev, X.Abdusamatov, D.Sharapova. “Uy bekalariga psixologik yordam berish bo'yicha metodik tavsiyalar”, Mahalla va oila, Toshkent-2022y.